

OITS VA GEPATIT A, B, C, D, E VIRUSLARINING LABORATOR DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.

Qayumova Bibixon

Jizzax Ko'p Tarmoqli Tibbiyot Texnilumi Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi

Eshquvvatova Gulinur

Mikrobiologiya fani o'qituvchisi Terapiya

Ushbu maqolada OITS va gepatit A, B, C, D, E virusli kasalliklarining laborator diagnostika usullari hamda ularning profilaktik choralari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi virusli infeksiyalarni erta aniqlash va oldini olishda zamonaviy laborator tekshiruvlarning ahamiyatini ko'rsatishdan iborat. Ish jarayonida serologik, immunologik va molekulyar-biologik usullar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, laborator diagnostika kasallikni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Profilaktika choralari esa kasallik tarqalishini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola tibbiyot xodimlari, talabalar va keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

В статье рассмотрены лабораторные методы диагностики ВИЧ-инфекции и вирусных гепатитов А, В, С, D, E, а также меры их профилактики. Целью исследования является анализ современных методов раннего выявления вирусных заболеваний. В работе использованы серологические, иммунологические и молекулярно-биологические методы исследования. Полученные результаты подтверждают высокую эффективность лабораторной диагностики. Профилактические мероприятия играют ключевую роль в снижении распространённости инфекций. Материал предназначен для медицинских работников и студентов.

This article discusses laboratory diagnostic methods and prevention measures of HIV infection and viral hepatitis A, B, C, D, and E. The main objective is to evaluate modern laboratory techniques for early detection of viral infections. Serological, immunological, and molecular biological methods were analyzed. The results demonstrate that early laboratory diagnosis significantly improves disease control. Preventive strategies are essential in reducing infection rates. The article is intended for healthcare professionals and students.

Kalit so'zlar: OITS, gepatit viruslari, laborator diagnostika, profilaktika, immunologik tekshiruv, PCR

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, virusli gepatitlar va OITS global miqyosda jiddiy sog'liqni saqlash muammolaridan biri hisoblanadi.





Buyuk olim Abu Ali ibn Sino “Kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olish afzal” deb ta’kidlagan. Ushbu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. OITS va gepatit viruslari uzoq muddat yashirin kechishi va og‘ir asoratlarga olib kelishi bilan xavflidir.

Mazkur maqolada ushbu kasalliklarning laborator diagnostikasi va samarali profilaktika masalalari yoritiladi. Maqola asosan tibbiyot sohasi mutaxassisleri, talabalar hamda sog‘lom turmush tarziga befarq bo‘lmagan keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

OITS va gepatit viruslarini aniqlashda laborator diagnostika muhim o‘rin tutadi. Serologik usullar (ELISA) orqali organizmda virusga qarshi antitanachalar aniqlanadi. Molekulyar-biologik usullar, xususan PCR, virusning genetik materialini aniqlash imkonini beradi. Gepatit A va E asosan ifloslangan suv va oziq-ovqat orqali yuqsa, B, C, D va OITS qon va biologik suyuqliklar orqali yuqadi. Profilaktika choralariga emlash (gepatit A va B ga qarshi), steril tibbiy asbob-uskunalaridan foydalanish va xavfsiz hayot tarzini olib borish kiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, aholini muntazam skrining tekshiruvlardan o‘tkazish kasalliklarni erta aniqlashga yordam beradi. Virusli infeksiyalarni aniqlashda laborator diagnostikaning yuqori sezuvchan va spetsifik usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

OITS (HIV-infeksiya) diagnostikasida birlamchi skrining sifatida fermentga bog‘liq immunosorbent tahlil (ELISA) qo‘llanilib, virusga qarshi antitanachalar va antigenlar aniqlanadi. Tasdiqlovchi diagnostika sifatida immunoblotting (Western blot) hamda polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) usullari keng qo‘llaniladi. CD4+ T-limfotsitlar sonining kamayishi immunodefitsit darajasini baholashda asosiy klinik-laborator mezon hisoblanadi.

Virusli gepatitlarda serologik markerlar (HBsAg, anti-HBc, anti-HCV, anti-HAV IgM va IgG) orqali infeksiya bosqichi aniqlanadi. Gepatit B va C viruslarida virus yuklamasini baholash uchun real vaqtli PCR (RT-PCR) usuli muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kasallikning faolligi va davolash samaradorligini monitoring qilish imkonini beradi. Gepatit D virusining mavjudligi gepatit B virusiga bog‘liq holda aniqlanadi va bu holat kasallik kechishini og‘irlashtiradi. Gepatit A va E viruslari esa asosan fekal-oral mexanizm orqali yuqib, IgM antitanachalar aniqlanishi o‘tkir infeksiyani tasdiqlaydi.

Profilaktik tadbirlar doirasida spetsifik va nospetsifik himoya choralariga alohida e‘tibor qaratiladi. Spetsifik profilaktika sifatida gepatit A va B ga qarshi vaksinalar qo‘llaniladi, bu esa populyatsion immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Nospetsifik profilaktika choralari qatoriga aseptika va antiseptika qoidalariga qat’iy rioya qilish, donor qonini majburiy skriningdan o‘tkazish hamda invaziv muolajalarda bir martalik steril asboblardan foydalanish kiradi.





Epidemiologik nazorat va laborator monitoring tizimini kuchaytirish virusli infeksiyalar tarqalishining oldini olishda muhim strategik ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, OITS va gepatit viruslarini erta aniqlashda laborator diagnostika muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tekshiruv usullari kasallikning yashirin davrida aniqlash imkonini beradi.

Profilaktik choralar esa kasallik tarqalishining oldini olishda asosiy vosita hisoblanadi. Aholining tibbiy savodxonligini oshirish muhim natijalarga olib keladi.

Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar sog'liqni saqlash tizimida samarali qo'llanishi mumkin. Sog'lom jamiyatni shakllantirish har bir insonning mas'uliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1993.
2. “Sog'liqni saqlash” gazetasi.
3. WHO. Viral Hepatitis and HIV Articles.
4. Ommaviy axborot vositalari materiallari.
5. Internet manbalari (JSST rasmiy sayti).
6. Tibbiyot bo'yicha ilmiy maqolalar va ma'lumotlar bazalari.

